Аннотация: В данной статье рассматривается значение компетентностного подхода в процессе подготовки будущих педагогов к деятельности классного руководителя. Анализируются педагогические технологии формирования профессиональных компетенций, развития у студентов навыков управления воспитательной работой, а также подготовки к эффективному взаимодействию с классным коллективом. В исследовании освещаются теоретические основы, национальный и зарубежный опыт, а также эффективность компетентностно-ориентированной подготовки к деятельности классного руководителя.

Ключевые слова: будущий педагог, классный руководитель, компетентностный подход, педагогическая технология, воспитательная работа, профессиональная подготовка.

KIRISH

Bugungi kunda ta'lim sohasiga, xususan, oliy ta'lim tizimiga qaratilayotgan e'tibor ortib borayotgani barobarida, yoshlarning chuqur bilim olishga bo'lgan intilishi ham yangi avlod pedagog kadrlariga bo'lgan ehtiyojni yanada kuchaytirmoqda. Ayni paytda maktab ta'limida sinf rahbarining roli va vazifalari tobora kengayib, u nafaqat o'quv-tarbiya jarayonining muvofiqlashtiruvchisi, balki ijtimoiy-psixologik muhitni boshqaruvchi, o'quvchilar bilan individual ishlashchi yetakchi shaxs sifatida e'tirof etilmoqda. Shu bois, bo'lajak pedagoglarni ana shunday murakkab va mas'uliyatli faoliyatga puxta tayyorlash, ularning kasbiy va shaxsiy kompetensiyalarini tizimli rivojlantirish zarurati dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu ehtiyojdan kelib chiqqan holda, kompetensiyaviy yondashuv asosida sinf rahbari faoliyatiga tayyorlash texnologiyasini ishlab chiqish va uni amaliyotga samarali tatbiq etish zamonaviy pedagogik ta'limning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022–2026-yillarga mo'ljallangan “Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” to'g'risida 2022 yil 28-yanvarda qabul qilingan PF-60-sonli farmonida keltirilgan “Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish” maqsadi bugungi kunda yoshlarning shaxsiy rivojlanishlari, kasbiy va hayotiy faoliyatda kompetentlikka erishishlari uchun davlatimiz rahbarining ularga doimiy qo'llab-quvvatlash va e'tibor ko'rsatishga yo'naltirilgan siyosatini yanada mustahkamlashni ko'zda tutadi. Ushbu farmon yoshlarning



kelajakda jamiyatda faol va muvaffaqiyatli ishtirok etishlari uchun zarur bo'lgan ko'nikma va malakalarni shakllantirish, ularga ta'lim, ish o'rinlari va o'z kasbiy yo'nalishlarini tanlashda samarali yordam berishni ta'minlashga qaratilgan ^[1].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Sinf rahbarlari faoliyatiga pedagogika oliy o'quv yurti talabalari turli pedagogik-psixologik fanlar, jumladan, "Tarbiyaviy ishlar metodikasi", "Pedagogik mahorat", "Umumiy pedagogika va psixologiya", "Qiyosiy pedagogika", "Tarbiya diagnostikasi va korreksiyasi", "Tarbiyaviy ishlarni boshqarish" kabi fanlarning ma'ruza, seminar va amaliy mashg'ulotlar jarayonida nazariy bilimlarni egallaydilar. Olingan bilimlar pedagogik amaliyot jarayonida amaliy jihatdan sinab ko'riladi, ya'ni sinf rahbarlarining kasbiy faoliyati bilan bevosita tanishadilar. Talabalarining tarbiyaviy ishlar jarayoniga, xususan, sinf rahbarlik, guruh rahbarlik, tyutorlik faoliyatiga tayyorlashning mavjud tizimi yuqoridagi sxema, ya'ni auditoriyadagi bilimlar va pedagogik amaliyot jarayonidagi ko'nikmalar asosida ishlaydi ^[3].

Bo'lajak pedagoglarni kompetensiyaviy yondashuv asosida sinf rahbari faoliyatiga tayyorlashda tarbiya jarayoni va olimlarning innovatsion tarbiya to'g'risidagi fikrlari bizga etakchi metodologik manba bo'lib xizmat qiladi. A.K. Kolechenko texnologiyalarni pedagogik va psixologik tiplarga ajratadi. Uning fikricha, pedagogik texnologiyalarda operatsiyalar va harakatlar jismonan sezilarli bo'lsa, psixologik texnologiyalar esa yashirin xarakterga ega bo'ladi. Ya'ni, ular aniq bir inson psixikasidagi psixik operatsiyalar va harakatlardir ^[4, 125-126-b.].

I. Xarlamov tomonidan taqdim etilgan tarbiya texnologiyasi quyidagi o'ziga xos ko'rsatkichlarga ega:

- ma'naviy-axloqiy rivojlanishdagi ziddiyatlarni, ma'naviy-axloqiy sifatlar rivojlanishidagi kamchiliklarni aniqlash;
- kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha vazifalarni belgilash;
- tarbiyalanuvchilarni shakllantiriladigan sifat mohiyatini anglashga yo'naltirilgan bilish faoliyatiga jalb etish;
- rolli va xulqiy tarkibiy qismlar rivojlanishiga ta'sir ko'rsatish;
- to'g'ri xatti-harakatni mashq qildirish va uni mustahkamlash ^[6].

V.S. Selivanovning tarbiya texnologiyasi quyidagi bosqichlardan iborat:

- xulqning ma'lum shakliga ijobiy emotsional munosabat uyg'otish;
- oqilona xatti-harakat tarzini hosil qilish;
- xulqning ijtimoiy ma'qullanadigan shakli haqida tasavvurni shakllantirish va mustahkamlash;
- oqilona xulq-atvor odatlarini tarbiyalashga doir mashqlar;
- tushunchani o'zlashtirish ^[5].

Ta'lim texnologiyalari – bu o'quv jarayonini samarali tashkil etish, boshqarish va baholashga qaratilgan usullar, vositalar va jarayonlar majmui bo'lib, kompetensiyaviy yondashuvni amalda tatbiq etishda asosiy vosita hisoblanadi. Tadqiqotimizda aniqlangan ilmiy maqsad va sinf rahbarining kasbiy vazifalaridan kelib chiqib, ta'lim jarayonini samarali tashkil etishga xizmat qiluvchi texnologiyalar – jumladan, ta'lim jarayonini loyihalash texnologiyasi, o'yinga asoslangan ta'lim texnologiyalari hamda hamkorlikda o'qitish texnologiyalarining nazariy asoslari va mazmuni tahlil qilinadi. Xususan, mazkur texnologiyalarning bo'lajak sinf rahbarlarini kompetensiyaviy yondashuv asosida tayyorlashdagi o'rni va pedagogik jarayon samaradorligini oshirishdagi ahamiyati yoritib beriladi.

N.B. Arifovning "Innovatsion ta'lim texnologiyasida loyihalash metodi imkoniyatlari va uni amalga oshirish" nomli ilmiy maqolasida qayd etilishicha, loyihalash metodi (lot. projectus – oldinga tashlangan fikr, g'oya, obraz) kelgusidagi faoliyatni rejalashtirishga asoslangan bo'lib, u ma'lum bir hisob-kitoblar, chizmalar va boshqa hujjatlar asosida bayon etiladigan hamda tavsiflanadigan g'oya yoki fikrning ifodasi sifatida talqin etiladi ^[2, 24-b.]. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, sinf rahbarlari faoliyatiga bo'lajak pedagoglarni tayyorlash jarayoni chuqur nazariy bilimlar hamda amaliy kompetensiyalarning uyg'unlashuvi asosida quriladi. Tarbiyaviy ishlar, pedagogik mahorat, psixologiya va boshqa muhim fanlar orqali talabalarda kasbiy tayyorgarlik asoslari shakllantiriladi. Sharq allomalari va jadid pedagoglari asarlarida o'qituvchining shaxsiy fazilatlar, axloqiy pokligi, bilimdonligi va tarbiyaviy ta'siri alohida e'tirof etiladi. Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda esa kompetensiyaviy yondashuv asosiy metodologik asos sifatida ta'riflanib, bunda o'quvchi va muallimning bilim, ko'nikma, malaka va individual yondashuvlari muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa sinf rahbarlik faoliyatini samarali amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ko'p qirrali tayyorgarlik tizimini yuzaga keltiradi.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

M. Qazibekov hamkorlikda o'qitish – bu o'qituvchining ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilar guruhi, yakka yoki butun sinf bilan o'zaro samarali hamkorlikni tashkil qilishi bilan birga, o'quvchilarning ham o'zaro qo'llab-quvvatlovchi hamkorligini amalga oshirishdagi instruktaj va interfaol jarayonlarni ifodalovchi ommalashgan iboradir, deb ta'kidlaydi. U hamkorlikda o'qitish metodlarining quyidagi beshta xususiyatini ochib bergan:

Yuqorida keltirilgan nazariy manbalar, ilg'or tajribalar, shuningdek, olib borilgan ilmiy tadqiqotimizning maqsadi va mazmunidan kelib chiqqan holda, biz bo'lajak pedagoglarni kompetensiyaviy yondashuv asosida sinf rahbari faoliyatiga tayyorlash jarayonini takomillashtirishning lokal-modulli texnologiyasini ishlab chiqish konsepsiyasini belgiladik. Texnologiyani ishlab chiqishda bo'lajak pedagoglarni kompetensiyaviy yondashuv asosida sinf rahbari faoliyatiga tayyorlashning (kognitiv, faoliyatli, refleksiv) bosqichlari asos sifatida olindi.

Bo'lajak pedagoglarni kompetensiyaviy yondashuv asosida sinf rahbari faoliyatiga tayyorlash texnologiyasining tasnifiy belgilari quyidagilar:

Texnologiyaning nomi: Bo'lajak pedagoglarni kompetensiyaviy yondashuv asosida sinf rahbari faoliyatiga tayyorlash texnologiyasi.

1-jadval: Bo'lajak pedagoglarni kompetensiyaviy yondashuv asosida sinf rahbari faoliyatiga tayyorlash texnologiyasining tasnifiy belgilari jadvali

№	Tasnifi	Belgisi
1	Qo'llanilishi darajasi va tavsifi	lokal darajada qo'llanilish tavsifiga ega mezotexnologiya
2	Falsafiy asosi	1) antropologik; 2) ontologik; 3) dialogik; 4) o'zaro moslik; 5) kompetensiyaviy asos.
3	Metodologik yondashuvi	insonparvar, algoritimli, amaliy yo'naltirilgan, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv;
4	Rivojlanishning yetakchi omillari	1) sotsiogen; 2) psixogen;
5	Tajribani o'zlashtirishning ilmiy konsepsiyasi	assosatsiativ-refleksiv + faoliyatli + rivojlantiruvchi + bixevioristik;
6	Mazmuniga ko'ra	umumta'limiy; ijtimoiy-pedagogik
7	Faoliyat turi	ta'limiy (didaktik), tarbiyaviy, rivojlantiruvchi;
8	Qo'llaniladigan metodlari	1) dialogli; 2) vaziyatli; 3) bir-biriga tushuntirish; 4) bir-biriga o'rgatish; 3) mustaqil ish; 4) trening; 5) izlanishli-tadqiqotchilik;
9	Tashkiliy shakllari:	1) individual; 2) guruhli; 3) juftliklarda ishlash; 4) jamoaviy;
10	Qo'llaniladigan vositalari:	tarqatma materiallar, tadqiqot ishlari, multimedia
11	Talabaga yondashuv va tarbiyaviy o'zaro harakat tavsifi:	shaxsga yo'naltirilgan
12	Modernizatsion yo'nalishi va an'anaviy ta'lim tizimga munosabati	ijtimoiy-ta'limiy funksiyani kuchaytirish asosidagi pedagogik texnologiya
13	Qo'llanilish toifasi	oliy ta'lim talabalari uchun.

Sinf rahbarining zamonaviy kasbiy talablari, ta'lim jarayonining innovatsion yo'nalishi va shaxsiy kompetensiyalarning rivojlanish bosqichlariga tayanadi. Uning yo'nalganlik xususiyatlarini quyidagicha izohlaymiz: Kompetensiyaviy yondashuv asosida kasbiy tayyorgarlikni individuallashtirish orqali har bir talabaning shaxsiy rivojlanish trayektoriyasini loyihalash, o'z-o'zini anglash va o'z-o'zini boshqarish ko'nikmalarini shakllantirish, o'z-o'zini baholash, refleksiya va metakognitiv yondashuvlar asosida shaxsiy-kasbiy rivojlanish monitoringini olib borish, shuningdek, kasbiy faoliyatni rejalashtirish, strategik qaror qabul qilish va ijtimoiy-psixologik muhitga moslashish kompetensiyalarini rivojlantirish hamda o'zini kasbiy jihatdan yetakchi va menejer sifatida ko'ra oladigan, sinf jamoasi ichida ijtimoiy-psixologik barqarorlikni yaratishga qodir pedagog shaxsni shakllantirish nazarda tutiladi.

Innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorlash orqali tarbiyaviy ishda interfaol metodlar, loyiha texnologiyalari, keys-stadi va AKT vositalarini qo'llashga tayyorlik, yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini samarali qo'llay olish, ulardan mustaqil foydalanish orqali ta'lim-tarbiya sifatini oshirish hamda sinf rahbarining kasbiy faoliyatida monitoring, tahlil va baholash vositalari bilan ishlash kompetensiyasini shakllantirish, jamoaviy ijodiy faoliyatni boshqarish, loyiha asosida sinf hayotini tashkil etish, ijtimoiy hamkorlik madaniyatini rivojlantirishga tayyorlik muhim ahamiyatga ega. Kreativ va refleksiv muhitda faoliyat yuritishga yo'naltirish asosida o'quvchi, ota-ona,

pedagoglar va ijtimoiy hamkorlar bilan konstruktiv muloqot olib borish ko'nikmasini shakllantirish, shaxslararo va guruhlararo ijtimoiy munosabatlarni boshqarish, konfliktologik yondashuvlar asosida muammoli vaziyatlarni yechish, o'z tarbiyaviy faoliyatini tahlil qilish, refleksiya asosida pedagogik yondashuvlarini doimiy takomillash-tirish, o'quv jarayonini psixologik jihatdan qulay, rivojlantiruvchi, demokratik va kreativ muhitda tashkil eta olish qobiliyatini rivojlantirish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Texnologiyaning konseptual g'oyalari va tamoyillari:

- 1. Shaxsga yo'naltirilganlik tamoyili (antropologik asos).** Mazkur tamoyil bo'lajak sinf rahbarining inson-parvarlik g'oyalari asosida shakllanishini taqozo etadi. Bu yerda talaba shaxsiga ijodkor, tashabbuskor va tarbiyachi sifatida qaraladi. Shaxsga nisbatan yondashuv – shaxsiy qiziqish va ehtiyojlarni hisobga olish, individual imkoniyatlarni namoyon qilish uchun qulay pedagogik muhit yaratish, sinf rahbari sifatida insoniy munosabat, empatiya va madaniyatli muloqot ko'nikmalarini shakllantirishni ko'zda tutadi.
- 2. Integratsion va moslik tamoyili (o'zaro moslik).** Mazkur tamoyil kompetensiyalarni shakllantirish-da metodik yondashuvlar, uslublar va vositalarning bir-biriga uyg'unligi va adekvatligini ta'minlaydi. Shuningdek, sinf rahbarining faoliyati va tarbiyaviy metodlarining maktab, oila va jamiyat bilan mos keluv-chi mexanizmlar asosida shakllanishi hamda transversal kompetensiyalar – ya'ni muammolarni hal qilish, tanqidiy fikrlash, ijtimoiy faoliyatni tashkil qilish bo'yicha ko'nikmalarni rivojlantirishni ko'zda tutadi.
- 3. Innovatsion va kompetensiyaviy yondashuv tamoyili (kompetensiya asosi).** Ushbu tamoyil bo'lajak sinf rahbarini zamonaviy ta'lim tizimi talablariga mos kasbiy va shaxsiy kompetensiyalarga ega pedagog shaxs sifatida shakllantirishga yo'naltirilgan. Tamoyilning asosiy g'oyasi – sinf rahbarining mustaqil, mas'uli-yatli, tashabbuskor va reflektiv faoliyatini rag'batlantiruvchi o'quv-tarbiya muhitini yaratishdan iborat.

TAHLIL VA NATIJALAR

Birinchi bosqichda olingan natijalar – (kognitiv bosqich). Ushbu bosqich bo'lajak pedagoglarda kompeten-siyaviy yondashuvning mazmun-mohiyati va sinf rahbarining kasbiy faoliyatiga oid nazariy-metodologik asoslar haqida bilimlarni shakllantirishga yo'naltirilgan. Bosqich doirasida "Tarbiyaviy ishlar metodikasi" hamda "Peda-gogik mahorat" fanlari asosida "kompetensiyaviy yondashuv", "kompetensiya", "sinf rahbari", "tarbiyaviy ishlarni tashkil etish", "4K kompetensiyalari" (kreativlik, kommunikativlik, kollaboratsiya, kritik fikrlash) va boshqa tushunchalar chuqur o'rganiladi.

Shuningdek, bu bosqichda talabalarda sinf rahbariga zarur bo'lgan shaxsiy va kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishning shakl, metod va vositalari bo'yicha nazariy tushunchalar shakllanadi. Ushbu bilimlar ma'ruza, seminar, trening, to'g'arak mashg'ulotlari, shuningdek individual va guruhli ish shakllarida, kreativ va interaktiv ta'lim texnologiyalari asosida o'zlashtiriladi. Har bir mashg'ulot mavzusi axborot komponenti asosida qurilib, unga tegishli nazariy qarashlar, ilmiy yondashuvlar va mualliflik fikrlari kiritiladi. Taqdim etiladigan materiallar taqdimot, eslatma, qiyosiy jadval, jadvaliy tahlil kabi turli ko'rgazmali vositalar orqali talabalarga yetkaziladi.

Ikkinchi bosqichda olingan natijalar – (motivatsion-baholovchi bosqich). Mazkur bosqichda talabalarda pedagogik kasbga, xususan, sinf rahbarlik faoliyatiga nisbatan ichki motivatsiya shakllantiriladi. Bu orqali ularda o'z-o'zini kasbiy va shaxsiy rivojlantirishga yo'naltirilgan anglash va boshqaruv ko'nikmalari shakllanadi. Tala-balar pedagogik faoliyatda kompetensiyalar muhim o'rin tutishini chuqur anglab yetadilar. Ushbu bosqichda bo'lajak pedagoglarda sinf rahbari faoliyatiga tayyorlik darajasini aniqlash maqsadida maxsus mezonlar, ko'rsat-kichlar va daraja indikatorlari bilan tanishish ishlari amalga oshiriladi. Baholashda N. O'rinova va S. Xusenova tomonidan ishlab chiqilgan "Bo'lajak pedagoglarni kompetensiyaviy yondashuv asosida sinf rahbari faoliyatiga tayyorlik darajasini aniqlashga qaratilgan so'rovnoma, muammoli keyslar to'plami, topshiriqlar jadvali" asosida diagnostik tahlillar o'tkaziladi. Bu esa talabalar tayyorgarligini obyektiv baholashni ta'minlaydi.

Uchinchi bosqich – (faoliyatga yo'naltirilgan bosqich). Ushbu bosqichda pedagogik fanlar doirasida sinf rahbarlik faoliyatiga oid kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan metodlarni amalda qo'llash va modifikat-siyalash ishlari olib boriladi. Talabalarda dars jarayonini innovatsion ta'lim texnologiyalari, zamonaviy metod va vositalar asosida tashkil etish bo'yicha amaliy ko'nikma va malakalar rivojlantiriladi. Bu bosqich o'rgangan nazariy bilimlarni amaliyot bilan uyg'unlashtirishga, shuningdek bo'lajak sinf rahbarining kasbiy o'zligini mustah-kamlashga xizmat qiladi. "Tarbiyaviy ishlarni boshqarish", "Pedagogik mahorat" fanlaridan ma'ruza, amaliy, seminar-trening, individual va guruhli ish shakllari qo'llanilib, muammoli ta'lim, loyiha, keys-stadi texnologiyasi, interaktiv o'yinlar ishlatiladi.

Amaliy mashg'ulot talabalarning xatti-harakati va o'qituvchining talabalar bilan o'zaro munosabati-ni model bo'lib, bu shakl va tarkibning integratsiyasini aks ettiradi. Amaliy ishtirokchilar tomonidan guruh topshiriqlarini bajarish davomida maslahatlar beriladi. Pedagog tomonidan tayyor javoblarni berish va tanqid



qilish taqiqlanadi. Biroq guruh a'zolari faoliyatini yo'naltirish, o'z strategiyalarini aks ettirish, zarurat tug'ilganda taklif etilgan vazifani bajarishning muqobil usullarini izlash imkonini beruvchi muammoli savollar berish mumkin.

Kompetensiyaviy yondashuv asosida sinf rahbari faoliyatiga tayyorlash vositalari: interaktiv dasturiy vositalar, o'quv reja, o'quv dasturlari, multimedia vositalari, AKT texnologiyalari. Ushbu bosqichning asosini bo'lajak pedagoglarni kompetensiyaviy yondashuv asosida sinf rahbari faoliyatiga tayyorlashning shakli sifatida "Zamonaviy sinf rahbar" nomli ilmiy-ijodiy to'garak faoliyati tashkil etadi. To'garak faoliyatini muntazam tashkil etish va to'garak a'zolariga ilmiy hamda metodik tavsiyalar berib borish maqsadida "Zamonaviy sinf rahbar" Telegram kanali tashkil qilindi.

To'rtinchi bosqich (kognitiv) – dars va darsdan tashqari tadbir loyihalarini ishlab chiqish, mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarish orqali sinf rahbari faoliyatiga doir kompetensiya rivojlanadi. Tarbiya jarayonini va tadqiqot ishlarini rejalashtirish hamda amalga oshirish ko'nikmasi shakllanadi. Mazkur bosqich talabalarda o'z-o'zini refleksiya qilish vazifasini bajaradi. Oliy ta'lim tizimiga kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish – bu ta'lim maqsadlari, mazmuni, o'qitish shakllari, metodlari, pedagogik texnologiyalari, baholash usullari hamda ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi o'rtasidagi munosabatlarda sifat jihatidan yangilanish va tub o'zgarishlarni amalga oshirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Mustaqil ishlarni tashkil etishda individual yondashuvga alohida e'tibor berilishi va ularning hajmi ta'limda o'zlashtirishni chuqurlashtirishga xizmat qilishi kerak. Kompetensiyaviy yondashuv, shuningdek, ta'limda qo'llanilayotgan pedagogik texnologiyalarni ham qayta ko'rib chiqishni talab etadi. Bu jarayonda kreativ va amaliy faoliyatga asoslangan topshiriqlar orqali talabalarda mustaqil fikrlash, qaror qabul qilish va kasbiy vaziyatlarga moslashish kompetensiyalarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Kompetensiyaviy yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarda kasbiy kreativlik, muammoli vaziyatda mustaqil harakat qilish, kommunikatsiya va ijtimoiy hamkorlik kabi ko'nikmalarni rivojlantirish uchun ularga erkinlik, tanlov imkoniyati, tajriba asosida o'zini sinab ko'rish muhiti yaratilishi zarur.

Ta'limda interaktiv texnologiyalar, onlayn platformalar va zamonaviy o'quv dasturlaridan foydalanish – talabalarining o'quv jarayoniga jalb etilishini kuchaytiradi, tanqidiy va tahliliy fikrlash kompetensiyalarini shakllantirishga yordam beradi. Jamoaviy ishlar, hamkorlik va muloqot orqali esa talabalar o'zaro fikr almashadi, mas'uliyatni bo'lishadi va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantiradi. O'qituvchilar esa talabalarga tahliliy fikrlash, kasbiy muammolarni aniqlash va hal qilish, hamda o'z fikrini asosli tarzda ifodalash kompetensiyalarini shakllantirishda yo'l-yo'riq ko'rsatishlari lozim. Ijodiy faoliyat va yangilik yaratish jarayonlariga tayangan holda ta'lim jarayonini tashkil etish bo'lajak pedagoglarda kreativlik, innovatsion tafakkur va ilg'or pedagogik amaliyotni joriy etish ko'nikmalarini mustahkamlaydi. O'qituvchilar bu jarayonda talabalarni nafaqat bilim bilan qurollantirishi, balki ularning real vaziyatlarda kompetensiyaviy harakat qilish salohiyatini shakllantirishlari zarur. "Pedagogika" ta'lim yo'nalishining 3-kurs talabalari uchun mo'ljallangan "Pedagogik mahorat" fanini va 2-kurs talabalari uchun mo'ljallangan "Tarbiyaviy ishlarni boshqarish" fanini o'qitish jarayonida bo'lajak sinf rahbarlarini kasbiy tayyorlashda kompetensiyaviy yondashuvni qo'llash dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bu yondashuv orqali o'quv jarayoni faqat nazariy bilim berishga emas, balki talabalar kompetensiyalarini – ayniqsa pedagogik, kommunikativ, ijtimoiy va boshqaruv kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltiriladi. Shunga muvofiq, ma'ruza, amaliy va seminar mashg'ulotlarining mazmuni kompetensiyaviy yondashuv asosida qayta ko'rib chiqildi va talabalarda real sinf rahbari faoliyatini modellashtirish orqali kasbiy ko'nikmalarni shakllantirish maqsad qilindi.

Tadqiqot jarayonida bo'lajak sinf rahbarlari uchun "Pedagogik mahorat" va "Tarbiyaviy ishlarni boshqarish" fanlaridan ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar bilan bir qatorda, "Zamonaviy sinf rahbar" nomli ilmiy-ijodiy to'garak faoliyati yo'lga qo'yildi. Ushbu to'garakda sinf rahbarlik faoliyatining asosiy yo'nalishlari – tarbiyaviy ishlarni tashkil etish, o'quvchilar bilan individual ishlash, ota-onalar bilan muloqot, ijtimoiy muammolarni hal qilish bo'yicha amaliy topshiriqlar va treninglar o'tkazildi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, bo'lajak pedagoglarni sinf rahbari sifatida tayyorlashda kompetensiyaviy yondashuv muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Bu yondashuv nafaqat nazariy bilimlarni egallash, balki talabalarda amaliy ko'nikmalar, kasbiy kompetensiyalar, kommunikativ va refleksiv malakalarni shakllantirishni ko'zda tutadi. Sinf rahbarining faoliyati keng qamrovli bo'lib, uning samarali bajarilishi pedagogik-psixologik bilimlar, tarbiyaviy jarayonni boshqarish qobiliyati hamda shaxsiy namuna orqali amalga oshiriladi.

O'zbek va jahon pedagogik merosida sinf rahbari shaxsi va tarbiyaviy jarayonning ahamiyati yuksak baholangan. Shayx Sa'diy, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniy, Mahmudxo'ja Behbudiy va boshqa mutafakkirlar asarlarida murabbiylik faoliyatining ma'naviy-axloqiy tamoyillari asoslab berilgan. Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda esa pedagog kasbiga doir kompetensiyalarni rivojlantirish texnologiyalari aniq ifodalangan bo'lib, ular orqali sinf rahbarlarining kasbiy faolligini oshirish va ijtimoiy mas'uliyatini mustahkamlash mumkinligi ta'kidlanadi.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni – <https://lex.uz/docs/-5841063>
2. Arifova, N. B. Loyihalash metodi – o'qitishni tashkillashtirishning muhim shakli [kurs ishi] / N. B. Arifova. – Andijon: Andijon davlat universiteti, 2014. – 24 b.
3. Xusenova, S. B. Kompetensiyaviy yondashuv asosida sinf rahbari faoliyatiga tayyorlashning pedagogik-psixologik o'ziga xosliklari. NamDU Ilmiy axborotnomasi. Namangan, 2025. № 5 – B. 1280–1284.
4. Кречко, Д. "Образование", "воспитание", "обучение" с позиций компетентностного подхода [Текст] // Высшее образование в России. – 2004. – № 4. – С. 125–126.
5. Селиванов, В. С. Основы общей педагогики: теория и методика. – М.: Академия, 2002. – 420 с.
6. Харламов, И. Ф. Формирование личностных качеств в процессе воспитания // Педагогика. – М., 2003. – № 3. – С. 52–59.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.